

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO'LIMI
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA'MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnomma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2024-9/1
Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Boboqulov A.Z., Boltayev B.S., Xudoyqulov A.M. Urug' mevali daraxtlarning ko'chatzorlarida so'ruchchi va kemiruvchi zararkunandalarining, tur tarkibi va uch rash darajasi	240
Djambilov B.X. Orenburg zotli echkilarning jinsiy dimorfizmga bog'liq tirik vazn dinamikasi	243
Mavlyanova G.Dj., Xolikova M.A., Suyunova G.U., Tangriyev T.Ch. Takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarining muhim qimmatli xo'jalik belgilarini o'rganish	246
Muhammadiyev O.A., Erjigitov D.Sh., Mamatqulova G.F., Dolimov A.A., Tursunmurodova B.T., To'rayev O.S., Rafiyeva F.U., Kushanov F.N. Kuzgi yumshoq bug'doy (<i>Triticum aestivum</i> l) nav namunalarining qurg'oqchilikka chidamliligin dala sharoitida baholash	249
Norov B.N., Rayimberdiyev X.A., Mirzoyoqubov K.E. G'o'zaning s-5712 navini Uster-1000-HVI zamonaviy texnologiyasida tola tahlili	253
Qalandarov R.H. Dehqon xo'jaliklarida qoramollarni bo'rdoqiga boqishda ozuqa turlarining deversifikatsiyalashni ahamiyati	257
Raximbayeva D.A. Xorazm viloyati tuproq-iqlim sharoitida kanakunjut (<i>Ricinus communis</i> L.) navlarining unuvchanligi va o'sish energiyasi	260
Raximov Sh.Sh., Satipov G.M. Kuzgi bug'doy navlarining unib chiqishiga ekologik omillarning ta'sirini baholash	265
Satipov G.M., Raximbayeva I.A., Jumaniyazova N.B. Xorazm viloyati sharoitida pomidor navlarinini yetishtirish texnologiyasi	267
Satipov G.M., Sadullayev S.M., Yusupova A.K. Qovunning "Ko'kcha" navidan yuqori hosil olish agrotexnologiyasi	271
Tohirjonov N.T. Akvakultura sohasida ozuqa yemi tarkibidagi ingredientlarning baliqlar ozuqaviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari	273
Ulug'murodova Yu.A. G'o'za nav va tizmalarining dala unuvchanligi	278
Xamrayeva N.T., Merganov A.T. Theoretical and practical principles of creation of healthy starting material in potato seeding	280
Xolikova M.A., Ro'zmatova Sh.T., Seit-Asan L.S. Takroriy ekin sifatida ekilgan mahalliy va xorijiy soya navlarining vegetatsiya davri davomiyligi	282
Achilova Sh.C., Rabbimov A. Katta қончўп-chelidonium Majus L. нинг сув режими хусусиятлари	286
Baxtiyrov C.B. Планирование эксперимента адсорбционной очистки хлопкового масла	290
Baxtiyrov C.B. Математическое моделирование процесса адсорбционной очистки хлопкового масла	295
Bekmurodov X.T., Tadzhiev K.M., Tadzhiev K.M., Shadmanov J.K., Karimov P.A. Moш ва soy экинларининг hamkor sifatida ekilgannda fu'za xosildorligi tasiri	299
Kdirbaev U.R., Kaюopov I.P., Janqabaev D.M., Kutlimurotov J.K., Turdiibaev Ё.Я. Toшsaka kanalining eksplyuatация жараёнидаги mavjud foidali iш ko'effitsientini aniklash	302
Nurmatorov Sh.N., Shadmanov J.K., Bekmurodov X.T., Karimov P.A. Moш ва soy экинларининг hamkor va takroriy ekin sifatida ekilgannda fu'za xosildorligi taъsiри	306
Xaitov Э.A., Shadmanov D.K., Rahmonov Р.U. Irrigation эрозиясига учраган erlarnda fu'zani mawsumiy suғoriш meъёрлари	310
Эшанкулов Б.И. Xandон pistanining onaliq daraхtidan янги usulda pайvандуст-куртак novdalapini olish orқali xosildorlikni oшириш	314
TEXNIKA FANLARI	
Eshkobilova M.E. Development of two-channel gas analyzer based on thermocatalytic and semiconductometric methods for continuous monitoring of natural gas (methane)	318
GEOGRAFIYA FANLARI	
Mo'minov D.G'. Tabiiy landshaftlardan foydalanishning geografik jihatlari	323
Ro'zmetov D.R., Ahmedov G'.Y. Shahar hosil qiluvchi industriya – Xorazm viloyatida urbanizatsiyaning ayrim masalalari	326
KIMYO FANLARI	
Rajapova S.K., Abdullaeva Z.Sh., Bobojonova N.R., Avazmuratova S.O. Synthesis of heterometallic complex compound based on copper (II) formate and sodium salicylate	331
Мадаминова К.Н., Абдуллаева Ф.А., Абдуллаева З.Ш., Хасанов Ш.Б. Смешанноамидные комплексы никотината цинка	334
TIBBIYOT FANLARI	
Matkarimova D.S., Abdullaeva D.Sh. Surunkali mieloleykoz(sml)- kasalligini davolashda patogenetik yondoshuv prinsiplari	340

keying yosh davrlari oralig'ida o'sish koeffitsentlari bo'yicha erkak jinsli uloqlar deyarli mutlaq ustunlikni namoyon etishdi. Xususan, tajribadagi echkilarning 1-4 oylik yosh oralig'ida o'sish koeffitsienlari erkak jinsli uloqlar 2,29 birlini, urg'ochi uloqlarda 2,19 birlikka to'g'ri keldi. Ya'ni erkak jinsli uloqlar 0,1 birlikka o'sish tezligi intensivlashganini ko'rish mumkin. Bir oylik yoshda shakllantirilgan axtalangan uloqlar guruhida o'sish koeffitsieti erkak jinsli uloqlarga nisbaran 0,18 birlikka kam ekanligi qayd etildi. Shuningdek bu guruh urg'ochi uloqlar guruhidan ham 0,08 birlikka quyi pog'onani egalladi. Biroq tajribadagi echkilalar 4-8 oylik yosh oralig'ida o'sish koeffitsienlari nisbatan sarkalar guruhida kuzatilib, 1,31 birlikni tashkil etdi. Bu yosh oralig'ida erkak jinsli echkilalar esa o'sish koeffitsieti birligi 1,30 ni, urg'ochi echkilarda bo'lsa 1,29 birlikka to'g'ri keldi. Echkilarning 8-12 oylik yosh oralig'ida o'sish koeffitsienlari nisbatan yana kamayib, guruhlar bo'yicha mos holda 1,12; 1,10 va 1,11 birliklarni tashkil etdi. Bu yosh oralig'idagi takalar yuqori, urg'ochi echkilalar quyi va sarkalar guruhni oraliq holatni egalladi. Fizioliogik voyaga yetish yoshi oralig'ida o'sish koeffitsietlari orasida sezilarli tafovut kuzatilib, takalar guruhida 1,28 birlikni, urg'ochi echkilalar guruhida 1,21 birlikni va sarkalar guruhida esa 1,25 birlikni tashkil etdi. Echkilarning umuniy 1-18 oylik yosh oralig'ida takalar guruhni o'z tirik vaznni 4,27 birlikka, urg'ochi echkilalar guruhni 3,85 birlikka, sarkalar guruhni esa 3,98 birlikka oshirgani aniqlandi.

Xulosa. Olingen natijalar va ularni o'zaro taqqoslab qilingan tahlil natijalaridan xulosa qilish mumkinki, Orenburg zotli echkilarda tirik vazn jinsiy dimorfizmga yaqqol farglanadi. Erkak uloqlarni axtalash ularning tirik vazniga o'z ta'sirini ko'rsatib, tirik vaznning nisbatan kamayishiga olib keladi. Tadqiqotlarda davomida tirik vaznnig yuqori ko'rsatkichi erkak echkilalar guruhida qayd etilgan bo'lsa, quyi ko'rsatkichi esa urg'ochi echkilalar guruhida kuzatildi. Axtalangan echkilalar tirik vazni esa davrlar bo'yicha oraliq holatni egallashi aniqlandi. Shuningdek jinsiy demorfizmga ko'ra tirik vaznning o'sish koeffitsietlari sut emish davrida yuqori birlikni qayd etib, fiziologik voyaga yetguncha kamayib boradi. Bu esa ularda nisbiy o'sishning ham pasayib borishini ko'rsatadi. Shuning bilan bir qatorda, erkak echkilarni axtalash o'sish intensivligini ham sekinlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Забелина М.В. Рейзбих Е.Ю. Мясные качества козликов русской молочной породы в зависимости от молочности их матерей Ж: Овцы, козы, шерстяное дело. – 2011. – № 1. – С. 22-24.
2. Меркуриева Е.К. Биометрия в селекции и генетике сельскохозяйственных животных. Москва: Колос, 1970. – 424 с.
3. Мустафина Г.Н. Продуктивные и биоморфологические качества помесей коз русской белой и зааненской пород: автореф. Дис.к.с.-х.н.– Чебоксары. – 2008. – 22 с.
4. Юсупов С. Овцы и козы Узбекистана. Ташкент 2002. – 43 с.
5. <https://orenblog.ru/archives/158>

UO'K 633:581.14

TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN SOYA NAVLARINING MUHIM QIMMATLI XO'JALIK BELGILARINI O'RGANISH

G.Dj. Mavlyanova, o'qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

M.A. Xolikova, o'qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

G.U.Suyunova, o'qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

T.Ch. Tangriyev, o'qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

Annotatsiya. Ushbu maqola takroriy ekin sifatida ekilgan mahalliy va xorijiy soya navlarining qimmatli xo'jalik belgilarini aniqlashga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar : soya, mahalliy, xorijiy, qimmatli, dukkak, don

Аннотация. Данная статья посвящена выявлению ценных хозяйственных признаков местных и зарубежных сортов сои, выращиваемых в качестве повторных культур.

Ключевые слова: соя, местная, зарубежная, ценная, бобовая, зерновая

Abstract. This article is devoted to identifying valuable economic traits of local and foreign soybean varieties grown as repeat crops.

Key words: soy, domestic, foreign, valuable, legume, seed

Kirish.Dunyo miqyosida soya o'simligi oqsil uchun eng ko'p yetishtiriladigan ekin bo'lib, so'ngi yillarda soyadan olinadigan mahsulotlarga bo'lgan talabning keskin ortishi tufayli ushbu o'simlik yetishtiriladigan maydonlar kengayib bormoqda. Shu o'rinda, kuzgi boshoqli don ekinlaridan bo'shagan yerlarga takroriy ekin sifatida soya navlarining turli tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan navlarini tanlab olish, ekish, qimmatli xo'jalik belgilarini o'rganish, ko'paytirish, turli stress omillarga chidamli navlarni yaratish va turli ekologik hududlarda sinab ko'rish va o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuning o'rganilishi va tadqiqot uslublari. Soya ekinining hosildorligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan ta'minlanadi: maydon birligidagi o'simliklar soni, bir to'p o'simlikdagi dukkanlar soni, bir to'p o'simlikdagi don soni va 1000 ta donining vazni, ya'ni navning hosildorligi o'simliklarning mahsuldarligi (o'rtacha bir o'simlikning hosili) va maydondagi ekin (ko'chat) qalnligiga bog'liq [9].

Soya o'simligining dukkanligi yirik (6-7 sm), o'rta (4-5 sm), mayda (3-4 sm), tik, egilgan shaklida bo'ladi. Bir tup o'simlikda dukkanning soni nav xususiyatiga, tuproq iqlim sharoitiga bog'liq bo'lib, 10 tadan 350 tagacha bo'ladi. Dukkanligi sertukli, dukkanligda 1-4 ta urug' bo'ladi. Dukkanligi rangi och jigar, to'q jigar, ko'k, kul rangli bo'ladi. Ayrim navlarda dukkanligi yetilganda chatnaydi. Dukkanlar o'simlik poyasining pastki, o'rta va yuqori qismlarida joylashadi. Urug'i qora, jigar rang, yashil, sariq. Shakli sharsimon, kemasimon, cho'zinchoq, yassi ko'rinishlarda. Urug'i mayda va yirik. 1000 ta urug' vazni mayda yirikligiga qarab 100-520 g gacha. Urug'ning uzunligi 5-17 mm, eni 4-9 mm, qobig'i silliq, yaltiroq yoki xira. Kertigining yuzasi silliq, cho'zinchoq shaklda, ponasmimon. Soya o'simligi navlari quyidagi belgilari bilan bir-biridan ajratiladi: gul rangi (oq, pushti, binafsha), tupining rangi (oq, jigar rangi), urug' shakli (dumaloq, sharsimon, ponasmimon, yassi), urug'ning rangi (sariq, yashil, jigar ravng, qora va ola rangli), urug'ning kattaligi — (uzunligi 6-13 mm, eni 4-85 mm, 1000 tasining vazni 350-370 g), urug' kertigining rangi (oq, jigar va qora rangli) ga qarab aniqlanadi [8].

Ilmiy tadqiqot ishlari Navoiy viloyati Karmana tumani dala sharoitida 2020-2022 yillar mobaynida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida soya o'simligining mahalliy Ustoz-MMAN-60, To'maris-MMAN-60, Oyjamol, xorijiy Rossiya seleksiyasiga mansub Selekta-201(nazorat) va Sparta, Qozog'iston seleksiyasiga mansub Nena navlаридан foydalanildi[2],[3].

2020 yil Navoiy viloyati sharoitida ekilgan mahalliy va xorijiy soya navlарida bir tup o'simlikdagi dukkanlar soni barcha navlarda nazorat naviga nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi. Eng yuqori ko'rsatkichlar xorijiy Sparta navida ($130,7 \pm 6,35$ dona) aniqlandi. Bir tup o'simlikdagi dukkanlar soni soya navlарida 70 ta dan 131 ta gacha ekanligi qayd etildi. Bir tupdagagi dukkanlar soni ko'rsatkichlari bo'yicha Sparta navida ko'proq ekanligi qayd etildi.

2021 yilda soya navlарida bir tupdagagi dukkanlar soni ko'rsatkichlari nazorat naviga nisbatan eng yuqoriligi Oyjamol navida $106,5 \pm 3,87$ dona, past ko'rsatkich esa nazorat navida (mos ravishda $73,6 \pm 3,26$ dona) bo'ldi.

2022 yilda dukkanlar soni Oyjamol navida ($277,2 \pm 8,6$ dona) bo'ldi eng past ko'rsatkich Nena navida ($97,5 \pm 8,21$ dona) ekanligi aniqlandi.

Bir tup o'simlikdagi dukkanlar soni ko'rsatkichlari Navoiy viloyatida xorijiy Sparta va mahalliy Oyjamol navlарida nazorat va boshqa navlarga nisbatan dukkanlar soni yuqori ekanligi qayd etildi. Nena navida tajribadagi boshqa navlarga nisbatan bir tupdagagi dukkanlar soni kam miqdorda ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Navoiy viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlарida bir tup o'simlikdagi dukkanlar soni ko'rsatkichlari, dona

T/r	Mahalliy va xorijiy soya navlari	2020	2021	2022
1	Selekta-201(nazorat)	$69,8 \pm 1,68$	$73,6 \pm 3,26$	$100,6 \pm 3,6$
2	Sparta	$130,7 \pm 6,35$	$98,8 \pm 7,38$	$214,0 \pm 10,31$
3	Nena	$96,4 \pm 2,9$	$94,5 \pm 3,25$	$97,5 \pm 8,21$
4	Oyjamol	$97,1 \pm 4,96$	$106,5 \pm 3,87$	$277,2 \pm 8,6$
5	Ustoz-MMAN-60	$85,6 \pm 1,85$	$85 \pm 5,76$	$110,9 \pm 4,87$
6	To'maris-MMAN-60	$80,3 \pm 3,5$	$75,6 \pm 5,22$	$131,6 \pm 2,41$

Takroriy ekin sifatida ekilgan mahalliy va xorijiy soya navlarida bir to'p o'simlikdagi umumiyy don soni. 2020 yil Navoiy viloyatida ekilgan mahalliy va xorijiy soya navlarida bir tup o'simlikdagi umumiyy don sonining nazorat naviga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichi mahalliy Ustoz-MMAN-60 navida($389,9 \pm 6,2$ dona) bo'lsa, eng past ko'rsatkich nazorat navida ($201,2 \pm 7,47$ dona) aniqlandi. 2021-2022 yillar davomida qayd etilgan natijalarga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkichi Oyjamol navida (mos ravishda $424,6 \pm 8,93$ dona) aniqlandi. (2-jadval).

2-jadval

Navoiy viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarida bir tup o'simlikdagi umumiyy don soni ko'rsatkichlari, dona

T/r	Mahalliy va xorijiy soya navlari	2020	2021	2022
1	Selekta-201(nazorat)	$201,2 \pm 7,47$	$214,9 \pm 8,47$	$298,4 \pm 5,97$
2	Sparta	$251,2 \pm 7,03$	$294,6 \pm 6,03$	$408,2 \pm 7,03$
3	Nena	$285,6 \pm 7,76$	$281,3 \pm 9,76$	$299,6 \pm 8,76$
4	Oyjamol	$288,4 \pm 8,93$	$420,0 \pm 5,93$	$424,6 \pm 8,93$
5	Ustoz MMAn-60	$389,9 \pm 6,2$	$312,3 \pm 6,7$	$316,7 \pm 6,2$
6	To'maris MMAn-60	$238,9 \pm 8,52$	$215,1 \pm 5,52$	$387,9 \pm 5,77$

Urug'lik donning sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri uning absolyut vazni hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz davomida muhim qimmatli xo'jalik belgilaridan bir tup o'simlikdagi umumiyy don og'irligi o'rganildi. Navoiy viloyatidagi mahalliy va xorijiy soya navlarida 2020-2022 yillar mobaynida nazorat variantiga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich mahalliy Oyjamol navida (mos ravishda $160,8 \pm 3,5$ gr, $162,26 \pm 3,53$ gr, $310 \pm 0,91$ gr) va eng past ko'rsatkich esa Nena navida (mos ravishda $63,07 \pm 0,85$ gr, $64,55 \pm 0,86$ gr, $69,86 \pm 0,92$ gr) aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Navoiy viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarining bir tup o'simlikdagi umumiyy don og'irligi ko'rsatkichlari, gramm

T/r	Mahalliy va xorijiy soya navlari	2020	2021	2022
1	Selekta-201(nazorat)	$67,13 \pm 1,05$	$68,62 \pm 1,04$	$71,71 \pm 0,99$
2	Sparta	$99,74 \pm 0,8$	$101,19 \pm 0,83$	$120,76 \pm 0,85$
3	Nena	$63,07 \pm 0,85$	$64,55 \pm 0,86$	$69,86 \pm 0,92$
4	Oyjamol	$160,8 \pm 3,5$	$162,26 \pm 3,53$	$310 \pm 0,91$
5	Ustoz-MMAn-60	$82,94 \pm 1,78$	$84,37 \pm 1,77$	$92,43 \pm 1,1$
6	To'maris-MMAn-60	$109,12 \pm 0,51$	$110,64 \pm 0,59$	$126,66 \pm 2,01$

Navoiy viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan mahalliy va xorijiy soya navlarida 1000 ta don og'irligi. Hozirgi vaqtida seleksioner olimlar tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan soya navlarining hosildorligi, urug'ning unib chiqish quvvati, unuvchanligi va urug' moydorligining yuqori bo'lishida 1000 dona urug' vazni katta ahamiyat kasb etadi. Bunday urug'larning unuvchanligi yaxshi bo'lib, yuqori hosil olish imkonini beradi. Urug' qanchalik to'liq bo'lsa, uning kurtagining ilk rivojlanish bosqichlarida kerakli ozuqa moddalari bilan to'liq ta'minlanishi uchun yetarli darajada ozuqa zaxiralari yaratilgan bo'ladi [4],[7].

Donning yirikligi hosil elementi sifatida hosildorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. 1000 dona don vazni ham tashqi muhit sharoitiga, qo'llanilgan agrotexnikaga bog'liq holda o'zgaradi. Qulay harorat, oziqa rejimi yirik donni shakllantirishga imkon beradi, aksincha issiq va quruq havo, namlikni yetishmasligi, begona o'tlar, zararkunandalar va kasalliklar 1000 dona don og'irligi ko'rsatkichini kamaytiradi [5],[6],[1].

Navoiy viloyatidagi mahalliy va xorijiy soya navlarida 1000 ta don vazni ko'rsatkichlaridan 2020 yilda eng yuqori ko'rsatkich Oyjamol navida $184,02 \pm 1,95$ gr aniqlandi. Eng past ko'rsatkich esa, Selekta-201(nazorat) navida (mos ravishda $162,34 \pm 0,55$ gr) kuzatildi. Qolgan navlar nazorat variantiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarda namoyon bo'ldi.

2021 yilda nazoratga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich Sparta navida (mos ravishda $176,26 \pm 2,07$ gr) qayd etildi. Nena navida tajribadagi boshqa navlarga nisbatan 1000 ta don og'irligi kam miqdorda ekanligi aniqlandi.

2022 yilda 1000 ta don vazni bo'yicha nazorat naviga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich xorijiy soya navlarida Sparta navida ($215,65 \pm 3,39$ gr) aniqlandi, eng past ko'rsatkich esa Selekta-201(nazorat) navida (mos ravishda $174,56 \pm 1,46$ gr) kuzatildi (4-jadval).

Navoiy viloyatlari sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarining 1000 ta don og'irligi ko'rsatkichlari, (gr).

T/r	Mahalliy va xorijiy soya navlari	2020	2021	2022
1	Selekta-201(nazorat)	162,34±0,55	157,24±0,85	174,56±1,46
2	Sparta	178,06±0,66	176,26±2,07	215,65±3,39
3	Nena	171,02±0,71	149,96±2,32	176,16±0,77
4	Oyjamol	184,02±1,95	175,66±1,44	197,31±1,42
5	Ustoz-MMAAn-60	171,92±1,25	156,02±1	177,04±2,2
6	To'maris-MMAAn-60	163,58±1,11	158,6±1,69	190,91±0,74

Xulosa. Tajribalarimizda 2020-2022 yillar oralig'ida Navoiy viloyatida ekilgan mahalliy va xorijiy soya navlarida 1000 ta don vazni ko'rsatkichlari o'rganilganda, Navoiy viloyatida Sparta va Oyjamol soya navlari Selekta-201(nazorat) nazorat navi va boshqa genotiplarga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarda ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.A.K Raximov, M.D Boltayeva, M.A Kholikova. Morphological indicators of soybean varieties planted in combination with corn. 2021.№12. -B 1151-1155 b.

2. J. Shavkiyev , A. Azimov , H. Matniyazova , M.Kholikova and all. Comparative performance and genetic attributes of upland cotton genotypes for yield-related traits under optimal and deficit irrigation conditions. SABRAO J. Breed. Genet. 53 (2). 157-171.

3.H. Matniyazova, S Nabiyev, M Kholikova, G Maylonova (2023). Physiological and biochemical parameters of soybean genotypes under diverse water regimes. SABRAO J. Breed. Genet. 55 (4). 1094-1108.

4.M.K. Lukov Soya har xil nav, namunalarining qimmatli xo'jalik belgilari //Republican Scientific and Practical Conference 2022.-B. 254-257.

5.M. B. Vafoyeva Don sifatini oshirishda innovatsion bargdan oziqlantirish texnologiyasi// Innovatsion texnologiyalar jurnali, № 1 (37) – 2020. -B. 54-58.

6.M.Kholikova, Kh.Matniyazova //To study the amount of chloroplast pigment in the leaves of local and foreign soybean varieties grown as a repeat crop in the conditions of Navoi and Samarkand regions. 2 (92). 36-42.

7.M.Kholikova, Kh.Matniyazova //Study of Some Physiological, Biochemical and Morpho-Economic Characteristics of Local and Foreign Soybean Varieties Grown as a Recurrent Crop in the Conditions of Navoy Region. 2 (05). 40-46.

8. X. Ataboyeva O'simlikshunoslik.T. 2004. -120 b

9.X. A. Idrisov Soyaning yangi navlarini yaratishda nav namunalaridan samarali va maqsadli foydalanishning ahamiyati//. Science and innovation international scientific journal. 2022.№3. -B.269-275.

UDK 575.113: 577.21

KUZGI YUMSHOQ BUG'DOY (*TRITICUM AESTIVUM L.*) NAV NAMUNALARINING

QURG'OQCHILIKKA CHIDAMLILIGINI DALA SHAROITIDA BAHOLASH

O.A.Muhammadiyev, tayanch doktorant, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent

D.Sh. Erjigitov, kichik ilmiy xodim, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent

G.F. Mamatqulova, kichik ilmiy xodim, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent

A.A.Dolimov, tayanch doktorant, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent

B.T.Tursunmurodova, tayanch doktorant, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent

O.S. To'rayev, katta ilmiy xodim, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent

F.U.Rafiyeva, katta ilmiy xodim, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent

F.N. Kushanov, professor, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent

Annotatsiya. So'nggi yillarda abiotik stress omillari bug'doy hosildorligiga yetarlicha salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada «Optimal» va "suv tanqisligi" sharoitida Yumshoq Bug'doy (*Triticum aestivum*) navlarining morfo-fiziologik ko'rsatkichlari o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra, boshoq uzunligi, bitta boshoqdagi don og'irligi va boshoqchalar soni kabi qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha Surxak, Grom va Bardosh navlari eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan. Krasnodarskaya 99 navi ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha pastroq natijani ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: Kuzgi yumshoq bug'doy (*Triticum aestivum L.*), nav, abiotik stress, qurg'oqchilik.

Abstract. In recent years, abiotic stress factors have had a negative impact on wheat productivity. In this article, the morphophysiological indicators of bread wheat varieties (*Triticum*